



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI RAHBARLARIDA KONFLIKTOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMLARI

Rahmonova Dilnoza Raxmatxon qizi
Namangan Davlat universiteti, doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarida konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida rahbarlarning konfliktli vaziyatlarni anglash, tahlil qilish va konstruktiv hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik mexanizmlarning samaradorligi o'rganildi. Olingan natijalar konfliktologik kompetentlikni rivojlantirish rahbarlik faoliyati samaradorligini oshirish va ta'lim muassasasida sog'lom psixologik muhitni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: konfliktologik kompetentlik, maktabgacha ta'lim, ta'lim muassasasi rahbari, pedagogik mexanizmlar, boshqaruv samaradorligi.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ КОНФЛИКТОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Рахмонова Дильноза Рахматхоновна
Наманганский государственный университет, докторант

Аннотация

В статье рассматриваются педагогические механизмы развития конфликтологической компетентности руководителей дошкольных образовательных организаций. В рамках исследования анализируется формирование у руководителей умений осмысления, анализа и конструктивного разрешения конфликтных ситуаций. Результаты исследования подтверждают, что развитие конфликтологической компетентности способствует повышению эффективности управленческой деятельности и созданию благоприятного психологического климата в дошкольных образовательных учреждениях.

Ключевые слова: конфликтологическая компетентность, дошкольное образование, руководитель образовательной организации, педагогические механизмы, эффективность управления.

PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING CONFLICTOLOGICAL COMPETENCE OF PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION LEADERS

Rahmonova Dilnoza Rakhmatkhon qizi
Namangan State University, Doctoral student

Abstract

This article examines the pedagogical mechanisms for developing conflictological competence among leaders of preschool education organizations. The study analyzes approaches

aimed at enhancing leaders' abilities to understand, analyze, and constructively resolve conflict situations. The findings indicate that developing conflictological competence significantly improves managerial effectiveness and contributes to creating a positive psychological climate in preschool educational institutions.

Keywords: conflictological competence, preschool education, educational organization leaders, pedagogical mechanisms, management effectiveness.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv jarayonlarining murakkablashuvi, jamoada ijtimoiy-psixologik munosabatlarning xilma-xilligi hamda pedagogik jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sirning kuchayishi ta'lim tashkilotlari rahbarlaridan yuqori darajadagi kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarni talab etmoqda. Xususan, pedagoglar, tarbiyalanuvchilar va ota-onalar o'rtasida yuzaga keladigan turli qarama-qarshilik va ziddiyatlarni samarali boshqarish maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining muhim boshqaruv vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, rahbarlarda konfliktologik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish masalasi dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Konfliktologik kompetentlik rahbarning ziddiyatli vaziyatlarni anglash, ularning kelib chiqish sabablari va rivojlanish dinamikasini tahlil qilish, shuningdek, konstruktiv hal etish strategiyalarini qo'llash qobiliyatini ifodalaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari faoliyatida bunday kompetentlikning mavjudligi jamoada sog'lom psixologik muhitni shakllantirish, pedagoglar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash va ta'lim jarayonining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Aksincha, konfliktlarni boshqarish bo'yicha yetarli tayyorgarlikning yo'qligi ta'lim muassasasida ijtimoiy taranglikni kuchaytirishi va boshqaruv samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

So'nggi yillarda pedagogik menejment va ta'lim psixologiyasi sohasida olib borilgan tadqiqotlar rahbar shaxsining kommunikativ, ijtimoiy va konfliktologik kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbarning har bir boshqaruv qarori pedagogik jamoa, ota-onalar va tarbiyalanuvchilarning manfaatlar bilan bevosita bog'liq bo'lgani sababli, konfliktlarni oldini olish va ularni konstruktiv yo'l bilan hal etish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim vazifaga aylanmoqda. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarida konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, rahbarlarning konfliktologik kompetentligini shakllantirishga yo'naltirilgan samarali pedagogik shart-sharoitlar va mexanizmlar asoslab beriladi hamda ularni ta'lim amaliyotiga tatbiq etishning ahamiyati yoritiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarida konfliktologik kompetentlikni rivojlantirish masalasi pedagogik menejment, ta'lim psixologiyasi va konfliktologiya fanlari kesishmasida o'rganiladigan dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda ta'lim muassasasi rahbarining kasbiy samaradorligi nafaqat boshqaruv bilimlari, balki ijtimoiy-psixologik kompetensiyalar, xususan konfliktlarni boshqarish qobiliyati bilan ham bevosita bog'liq ekani ta'kidlanadi. Konfliktlarning shaxs va jamoa rivojiga ta'siri masalalari ijtimoiy-psixologik nazariyalar doirasida keng yoritilgan. Xususan, Kurt Lewin va uning izdoshlari tomonidan ishlab chiqilgan guruh dinamikasi nazariyasida konfliktlar ijtimoiy munosabatlarning tabiiy elementi sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, konfliktlar to'g'ri boshqarilganda jamoa rivoji va innovatsion jarayonlarni rag'batlantiruvchi omilga aylanishi mumkin.

Ta'lim tashkilotlarida rahbar shaxsining konfliktologik tayyorgarligi masalalari pedagogik menejment sohasida alohida tadqiq etilgan. V. A. Slastenin va hamkorlarining ishlarida rahbar kompetensiyasining tarkibiy qismlari sifatida kommunikativ, refleksiv va konfliktologik kompetensiyalar ajratib ko'rsatiladi. Mualliflarning ta'kidlashicha, rahbarning konfliktologik

savodxonligi jamoada ijobiy psixologik muhitni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Konfliktologik kompetentlik tushunchasining mazmuni va tuzilmasi A. Ya. Antsupov hamda A. I. Shipilov tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ularning ishlarida konfliktologik kompetentlik bilim, ko'nikma, qadriyat va shaxsiy sifatlar birligi sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv ta'lim rahbarlari faoliyatida konfliktlarni anglash, tahlil qilish va konstruktiv hal etish mexanizmlarini ishlab chiqishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tizimida rahbarlar faoliyatining o'ziga xosligi bolalar, pedagoglar va ota-onalar bilan muntazam muloqot olib borish zarurati bilan belgilanadi. Shu bois, konfliktologik kompetentlikni rivojlantirish masalalari maktabgacha ta'lim kontekstida alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilar rahbarning konfliktlarni oldini olish va ularni pedagogik jihatdan to'g'ri boshqarish qobiliyati ta'lim muassasasining barqaror faoliyatini ta'minlashda muhim omil ekanini qayd etadilar. Xalqaro tajribada ham ta'lim rahbarlarining konfliktologik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish muhim yo'nalish sifatida qaraladi. UNESCO va OECD hujjatlarida ta'lim muassasasi rahbarlarining ijtimoiy-emosional va nizolarni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti sifatida e'tirof etilgan.

Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarida konfliktologik kompetentlikni rivojlantirish pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda aynan maktabgacha ta'lim rahbarlari faoliyati uchun moslashtirilgan pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Bu holat mazkur yo'nalishda maxsus tadqiqotlar olib borish zarurligini asoslaydi.

Mazkur tadqiqotda maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarida konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov metodi qo'llanildi. Ushbu metod rahbar xodimlarning konfliktologik bilim, ko'nikma va malakalarini amaliy faoliyat jarayonida o'rganish hamda pedagogik ta'sir samaradorligini ilmiy asosda baholash imkonini beradi.

Tajriba-sinov ishlari Namangan viloyatidagi 51 ta maktabgacha ta'lim muassasasi rahbar xodimlari ishtirokida o'tkazildi. Tadqiqot ishtirokchilari maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv faoliyatini amalga oshirayotgan rahbar va rahbar o'rinbosarlaridan iborat bo'lib, ularning kasbiy tajribasi va lavozim majburiyatlari tajriba sharoitlarining real va amaliy bo'lishini ta'minladi. Tajriba jarayonida rahbar xodimlarning konfliktologik kompetentlik darajasi diagnostik suhbatlar, kuzatuvlar va muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar orqali aniqlandi. Pedagogik ta'sir bosqichida konfliktlarni anglash, ularning sabablarini tahlil qilish, konstruktiv hal etish strategiyalarini tanlash hamda kommunikativ muloqotni samarali tashkil etishga yo'naltirilgan trening va mashg'ulotlar amalga oshirildi.

Tajriba-sinovning dastlabki bosqichida rahbarlarning konfliktologik kompetentlik darajasi aniqlanib, ularning konfliktlarni boshqarishdagi mavjud yondashuvlari tahlil qilindi. Tajriba yakunida esa ishlab chiqilgan pedagogik mexanizmlarning samaradorligi qiyosiy tahlil asosida baholandi. Baholash mezonlari sifatida konfliktli vaziyatlarni aniqlash, ularni oldini olish va konstruktiv hal etish bo'yicha rahbarlarning kasbiy faoliyatidagi o'zgarishlar belgilandi. Olingan natijalar pedagogik tajriba-sinov metodi maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarida konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi.

Pedagogik tajriba-sinov jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarida konfliktologik kompetentlikning rivojlanish darajasi tahlil qilindi. Tadqiqot Namangan viloyatidagi 51 ta maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan rahbar xodimlar ishtirokida o'tkazilib, ularning konfliktlarni anglash, tahlil qilish va konstruktiv hal etish bo'yicha kompetensiyalaridagi o'zgarishlar tajriba oldi va tajriba yakuni ko'rsatkichlari asosida qiyosiy


o'rganildi. Tajriba-sinovning dastlabki bosqichida rahbarlarning konfliktologik kompetentlik darajasi diagnostik suhbatlar va muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar orqali aniqlanib, ularning aksariyatida konfliktlarni boshqarish bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalar yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatildi. Tajriba jarayonida esa konfliktologik treninglar, rolli o'yinlar va refleksiv mashg'ulotlar asosida ishlab chiqilgan pedagogik mexanizmlar amaliyotga tatbiq etildi. Tajriba yakunida rahbar xodimlarning kompetentlik darajasidagi o'zgarishlar qayta baholandi.

1-jadval

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarida konfliktologik kompetentlik darajalarining tajriba oldi va tajriba yakuni bo'yicha qiyosiy ko'rsatkichlari (n = 51)

Konfliktologik kompetentlik darajasi	Tajriba oldi (%)	Tajriba yakuni (%)
Yuqori	19,6	43,1
O'rta	45,1	41,2
Past	35,3	15,7

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tajriba-sinov boshlanishida rahbar xodimlarning sezilarli qismi past darajadagi konfliktologik kompetentlikka ega bo'lgan. Tajriba yakunida esa yuqori darajadagi kompetentlikka ega rahbarlar ulushi deyarli ikki baravarga oshgan, past darajadagi ko'rsatkichlar esa sezilarli darajada kamaygan. Olingan natijalar ishlab chiqilgan pedagogik mexanizmlar rahbarlarning konfliktli vaziyatlarga nisbatan ongli, tahliliy va konstruktiv yondashuvini shakllantirishga xizmat qilganini ko'rsatadi. Ayniqsa, rahbarlarning muloqot madaniyati, muammoli vaziyatlarni oldindan ko'ra bilish va ularni murosali yo'l bilan hal etish ko'nikmalarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.



Rasm 1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarida konfliktologik kompetentlik darajasining dinamikasi (tajriba oldi va tajriba yakuni)

Diagrammada konfliktologik kompetentlik darajalari (yuqori, o'rta, past) gorizontali o'qda, foiz ko'rsatkichlari esa vertikal o'qda tasvirlanadi. Ustunli diagramma orqali tajriba oldi va tajriba yakuni natijalari qiyosiy ko'rinishda berilib, yuqori darajadagi kompetentlik

ko'rsatkichlarining o'sishi va past darajadagi ko'rsatkichlarning kamayishi yaqqol aks ettiriladi. Umuman olganda, tahlil natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarida konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik mexanizmlar boshqaruv faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Mazkur tadqiqot maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarida konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini ilmiy va amaliy jihatdan asoslashga qaratildi. Tadqiqot natijalari ta'lim muassasasida yuzaga keladigan ziddiyatlarni samarali boshqarish rahbarning kasbiy kompetensiyasi va boshqaruv samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri ekanini ko'rsatdi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari Namangan viloyatidagi 51 ta maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan rahbar xodimlar ishtirokida o'tkazildi. Olingan natijalar ishlab chiqilgan pedagogik mexanizmlar rahbarlarning konfliktologik bilimlari, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyati va konstruktiv hal etish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirganini tasdiqladi. Ayniqsa, yuqori darajadagi konfliktologik kompetentlikka ega rahbarlar ulushining oshishi va past darajadagi ko'rsatkichlarning kamayishi tajriba-sinov samaradorligini yaqqol namoyon etdi. Tadqiqot davomida rahbar xodimlarning muloqot madaniyati, murosaga tayyorlik, stressli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish hamda jamoada ijobiy psixologik muhitni shakllantirish borasidagi faoliyatida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Bu holat konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik mexanizmlar boshqaruv jarayonining barqarorligi va ta'lim muassasasining samarali faoliyat yuritishiga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarida konfliktologik kompetentlikni rivojlantirish uzluksiz kasbiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, mazkur yo'nalishda maqsadli pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Olingan natijalar maktabgacha ta'lim tizimida rahbar kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarini takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Анцупов А. Я., Шипилов А. И. Конфликтология. — М. : ЮНИТИ-ДАНА, 2015. — 551 с.
2. Слостёнин В. А., Исаев И. Ф., Шиянов Е. Н. Педагогика. — М. : Академия, 2013. — 576 с.
3. Кларин М. В. Инновации в обучении: метафоры и модели. — М. : Наука, 2016. — 320 с.
4. Зимняя И. А. Ключевые компетенции как результативно-целевая основа компетентного подхода в образовании // Высшее образование сегодня. — 2004. — № 5. — С. 34–42.
5. Вербицкий А. А. Теория контекстного образования. — М. : МПГУ, 2017. — 456 с.
6. Левин К. Разрешение социальных конфликтов. — СПб. : Речь, 2000. — 408 с.
7. UNESCO. Education Leadership and Management in Early Childhood Education. — Paris : UNESCO Publishing, 2019. — 45 p.